

YOSHLAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

#42 (16696)
2025–yil 22-oktabr,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925–yildan chiqa boshlagan



O‘zbek tili uchun TOMOSHABIN EMAS, ISHTIROKCHI BO‘LING!



**UNESCONING
14-YOSHLAR
FORUMI
SAMARQANDDA
O‘TKAZILADI**
TABIAT RESURS EMAS,
HAYOT MANBAYI

» 2-bet

Dunyo yoshlarining nigohi yana Samarqandga qaratiladi. 2025-yil 27-28-oktabr kunlari qadimiy shahar UNESCOning 14-Yoshlar forumiga mezbonlik qiladi. Forumning bosh mavzusi: “Iqlim harakati va ijtimoiy ta’sirlar, ayniqsa yoshlar uchun”.

NEGA AYANAN SAMARQAND?

Samarqandning UNESCO forumiga mezbonlik qilayotgani tasodif emas. Bu shahar ming yillardan beri insoniyat sivilizatsiyasilarini kesishgan nuqtadir. Bir zamonlar Ulug‘bek rasadxonasida yulduzlar o‘rganilgan bo‘lsa, bugun bu yulduzlar ostida yoshlar iqlimni o‘rganadi.

ga nafaqat tashkiliy, balki ma’naviy jihatdan ham haqli.

RAQAMLAR EMAS, TAQDIRLAR

Dunyo bugun tarixdagi eng sinovli palladan o‘tmoqda. Sayyoramizda o‘rtacha harorat oshmoqda, muzliklar erimoqda, cho‘llanish chegaralari jadal kengaymoqda. Bular oddiy raqamlar yoki quruq ilmiy xulosalar emas, balki insoniyat taqdirining, avvalo, yoshlarning oldida turgan sinovdir.

Chunki iqlim inqirozi faqat statistik ko‘rsatkichlar o‘zgarishida emas, odamlar, barcha tirik mavjudotlar, kelajak taqdirida aks etmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, har 10 yoshdan 8 nafari iqlim o‘zgarishidan xavotirda. O‘zbekistonda bu xavotir yanada yaqqol seziladi:

- suv resurslari kamaymoqda,
- cho‘llanish kengaymoqda,
- yoz oylarida havo harorat rekord darajaga chiqmoqda.

Ammo bizni quvontiradigan fakt bor – yoshlar bunga jim qarab turgani yo‘q. Ular faol ekologlarning oldingi safida turib, sayyoramizni ekologik inqirozdan saqlab qolishga bel bog‘lagan. O‘zbekiston yoshlari ham shu safda. “Green Team Uzbekistan”, “Yosh iqlim chempionlari”, “Ekoharakat klublari” kabi tashabbuslar ekologik ongini oshirib, maktabdan tortib universitetgacha ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirayapti.



IBRAT SOVG‘ASI

» 3-bet

Ona tilimizning jahon miqyosidagi mavqeyini oshirishda zamonaviy texnologiyalarining o‘rni tobora kengayib boryapti. Zamon talabidan kelib chiqib, Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” loyihasi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan **“O‘zbek tili” dasturini** ishlab chiqdi. Dastur O‘zbekistonda ilk bor o‘zbek tilini o‘rgatishda sun‘iy idrok texnologiyalarini tatbiq qilib, o‘quvchi o‘zbekcha talaffuz qoidalarini osongina o‘zlashtirishiga yordam beradi. Zamonaviy **“O‘zbek tili”** dasturi rasmiy **CEFR talablari** asosida tuzilgan. O‘quvchilarda tinglab va o‘qib tushunish, yozish va gapirish kabi asosiy nutq ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda lug‘atlarni oson yodlashga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘zbek tilining grammatik qoidalari sodda usulda tushuntirilgani bilan boshqa manbalardan ajralib turadi.

BMTning 80 yilligi

O‘ZBEKISTON
BMT NIZOMI
TAMOYILLARIGA
SODIQ

» 4-bet

2025-yil 24-oktabr kuni jahon hamjamiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining 80 yillik yubileyini nishonlaydi. 80 yil oldin Ikkinchi jahon urushi vayronalari ustida bu tashkilot tuzildi va insoniyat o‘z tarixidagi eng dahshatli fojidan saboq olib, tinchlik, hamkorlik va birgalikdagi rivojlanish yo‘lini tanladi. 1945-yil 24-oktabr kuni San Fransiskoda davlatlar imzolagan Nizom yangi dunyo tartibini yaratdi. Bugun BMT 193 a’zo davlatni birlashtirgan holda xalqaro hamkorlikning eng muhim platformasiga aylanib, global tinchlik va xavfsizlikni saqlashda yetakchi o‘rin tutib kelmokda.

Urushdan chiqqan dunyo yangi xalqaro tartib yaratish zarurligini anglab yetdi. BMTning asosiy maqsadi kelajakda urushlarning oldini olish, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish edi. Bu maqsadlar Nizomning dastlabki moddalarida o‘z ifodasini topdi va bugungi kungacha ahamiyatini yo‘qotmadi. Yillar davomida BMT dunyoning turli burchaklarida tinchlikni saqlash operatsiyalarini olib bordi, millionlab odamlarning hayotini saqlab qoldi, insonparvarlik yordamini amalga oshirdi va barqaror rivojlanish yo‘lida muhim yutuqlarga erishdi.



BO‘STONLIQDA O‘QUV-SEMINAR



2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida yoshlar siyosatini takomillashtirish, mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish va yoshlar yetakchilari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berilgan edi.

Bu topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Bo‘stonliqdagi “Yoshlar oromgohi”da Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmalarining kadrlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi, yuriskonsult, bosh buxgalteri hamda xo‘jalik mudirlari ishtirokida o‘quv-seminari tashkil etilishi belgilangan.

Dasturga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-son farmoni mazmun-mohiyatini tushuntirish, tizimda faoliyat olib boruvchi yoshlar bilan ishlash, ularning kasb-mahoratini oshirish, istiqbolli yosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, yosh xodimlarning g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ulanish ishlash tizimini muvofiqlashtirish kabi va boshqa muhim vazifalar o‘rin olgan bo‘lib, seminar yakunida kelgusi rejalr yuzasidan taqdimotlar muhokama qilindi.

Sarvar HAMDAMOV,
Yoshlar ishlari agentligi bo‘lim boshlig‘i

Tizimli natija sari



» 2-bet

– Bugun O‘zbekiston yoshlarga oid davlat siyosatining markazida turgan mahalla tuzilmasi yoshlarning ijtimoiy hayotga kirib borishi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishda birlamchi tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda, – deydi Yangibozor tumanidagi Xalqobod mahallasi yoshlar yetakchisi Aziza Abdurahimova. – Prezidentimizning 2024-2025-yillarda yoshlarga oid siyosatni natijadorlik va tizimlilik bosqichiga olib chiqish haqidagi topshiriqlari zamirida ham shu maqsad mujassam: har bir mahalla yoshlar hayotidagi eng yaqin ijtimoiy maydon bo‘lishi kerak.

Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi Xalqobod mahallasi yoshlar yetakchisi Aziza Abdurahimova ana shu g‘oyaning amaliy ifodasi sifatidagi ishlarga alohida e’tibor qaratyapti. Uning faoliyatida davlat siyosati tamoyillari, “Yoshlar daftari” tizimi, “Besh tashabbus olimpiadasi” va zamonaviy raqamli loyihalar uyg‘un, aniq natijalarga yo‘naltirilgan holda olib borilmoqda.

AN‘ANAGA MUVOFIQ

Yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning fikrini eshitish va muammolari-ga yechim topish maqsadida navbatdagi muloqot uchrashuvi fuqarolik jamiyati institutlari va volontyorlar ishtirokida tashkil etiladi. “Yoshlarni eshitamiz” shiori ostida o‘tadigan ushbu muloqot 23-oktabr kuni soat 15:00 da poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida boshlanadi.

Muloqotda bir qator vazirlik, idora va tashkilot mas’ullari ishtirok etadi. Unda barcha hududlardan yoshlarimiz Zoom platformasi orqali onlayn tarzda ishtirok etishlari mumkin.

Rejalashtirilgan muloqot uchrashuvi Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 30-iyun kuni yoshlar bilan o‘tkazgan ochiq subbatida ilgari surilgan tashabbuslarni amaliyotga joriy etish maqsadida tashkil etilayotgan uchrashuvlar turkumining navbatdagi bosqichi bo‘ladi.

Bungacha qishloq xo‘jaligi, migratsiya, kasb-hunar, tadbirkorlik yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan yoshlar, shuningdek, ijodkor va sportchi yoshlar bilan muloqotlar o‘tkazilgan.

Murojaat va takliflaringizni QR kodni skanerlash orqali “Yoshlar murojaati” Telegram botiga yuborishingiz mumkin.



Tizimli natija sari

RAQAMLAR ORTIDA INSON TAQDIRI

Yetakchi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan aniq va tizimli ishlar olib borib, mahalladagi har bir yoshning ijtimoiy holatini o'rgandi. Yordamga muhtoj bo'lganlar aniqlanib, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan.

Natijada 3 nafar yoshning kontrakt to'lovi qoplab berildi, 2 nafariga davolanish uchun moddiy yordam ajratildi. Ishsiz yoshlar masalasiga yil boshidan alohida e'tibor qaratildi. Aziza ularning har biri bilan individual ishlab, mehnat bozoridagi imkoniyatlar, kasb-hunar o'rganish yo'llari, davlat va xususiy sektor dasturlari haqida tushuntirish ishlari olib bordi. Natijada bir qator yoshlar tikuvchilik, go'zallik saloni, sartaroshlik kabi xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida ish bilan ta'minlandi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yoshlar uchun kooperatsiya asosida yer maydonlari ajratilib, ularga urug'lik va ko'chatlar yetkazib berildi. Shuningdek, yoshlar frilanserlik va AT sohalaridan ham daromad topyapti. 2025-yilda Xalqobodda ishsiz yoshlarning 90 foizi turli sohalarda ish bilan ta'minlandi.

Aziza Abdurahimova 2024-yilda ham bitiruvchilar bandlegini ta'minlashda bir qancha yutuqlarga erishgan. Migratsiyadagi yoshlarning 70 foizini Vatanga qaytargan.

XALQOBOD MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
3579 nafar;
Yoshlar:
1012 nafar;
Ayol-qizlar:
497 nafar.

QAMROV VA NATIJA

2025-yilda mahalla yoshlarining 95 foizi "Besh tashabbus olimpiadasi"ga jalb etildi. Ular sport, san'at, AT, madaniyat va ixtirochilik yo'nalishlarida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Misol uchun, bu yil qizlar gandbol va voleybol jamoalari olimpiadaning tuman bosqichida 1-o'rin, viloyatda 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Mahalla jamoasi "Yoshlar va qonun" tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, hozir respublika bosqichiga tayyorgarlik ko'ryapti.

Bundan tashqari, "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida 384 nafar yosh ro'yxatga olingan, "Mutolaa"da esa 562 nafar foydalanuvchi 1 836 ta kitob o'qiyapti. Bu raqamlar yoshlarning intellektual o'sish dinamikasini ham ko'rsatadi. Shuningdek, "Ustoz AI" platformasida 500 dan ortiq, "UzChess" loyihasida 215 dan ortiq yosh, "Qizlar akademiyasi"da esa 200 dan ortiq qiz o'qib-o'rganish bilan band.

BIR MAHALLADA



Yangibozor tumanidagi Xalqobod mahallasi yoshlar yetakchisi

Aziza ABDURAHIMOVA



TASHABBUS YARATGAN IMKONIYAT

Azizaning faoliyati xalqaro darajada ham e'tirof etilgan. Uning tashabbusi asosida Yangibozor tuman hokimligi mutasaddilari bilan ishlab chiqilgan 2023-2024-yillarga mo'ljallangan loyiha UNICEF bolalar tashkilotining 30 ming AQSh dollari miqdoridagi grantini yutib oldi. Bu mablag' orqali mahallalarda yoshlar uchun ijtimoiy inklyuziya, sog'lom turmush tarzi, media savodxonlik, ekologiya va gender tenglik yo'nalishlarida turli trening va tadbirlar tashkil etildi.

Azizaning yana bir tashabbusi Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 70 million so'mlik granti bilan taqdirlangan. Natijada mahalla yoshlari uchun sport anjomlari, kutubxona fondi va axborot texnologiyalari jihozlari xarid qilingan.

Aziza Abdurahimova Yoshlar parlamenti a'zosi, O'zbekiston bolalar tashkiloti tuman koordinatori sifatida ham faoliyat yuritadi. Uning faoliyati 29 ta mahallani qamrab olgan bo'lib, yoshlar bilan ishlashda yagona standartlarni joriy etish, ilg'or tajribalar almashish, loyihalar samaradorligini baholash kabi yo'nalishlarda yordam ko'rsatib kelmoqda.

HAR BIR TASHABBUSIMIZ, G'OYAMIZ BEVOSITA INSON HAYOTIGA, YOSHLAR KELAJAGIGA TA'SIR KO'RSATADI.

"Yashil" toifa:	"Sariq" toifa:	"Qizil" toifa:
802 nafar	189 nafar	27 nafar
Mahalla drayveri: savdo va xizmat ko'rsatish, dehqonchilik.		

UNICEF, KOICA, GIZ VA BRITISH COUNCIL KABI TASHKILOTLAR DASTURLARI ORQALI YOSHLARNING XORIJIY O'QUV VA TAJRIBA ALMASHINUV DASTURLARIDA QATNASHISHI REJALASHTIRILYAPTI.

RAQAMLI YOSHLAR MARKAZI

– Oldimizda hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan juda katta vazifalar turibdi. Har bir tashabbusimiz, g'oyamiz bevosita inson hayotiga, yoshlar kelajagiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun keyingi bosqichda ishimizni yanada tizimlashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ustuvor vazifamiz bo'ladi, – deydi Aziza Abdurahimova.

Yetakchi yaqin yillarda Xalqobod mahallasida "Har bir yosh – bir loyiha" tamoyilini bosqichma-bosqich joriy etishni rejalashtiryapti. Bu dastur orqali har bir faol yosh o'zining kichik bo'lsa-da, lekin ijtimoiy foydali tashabbusini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning aytishicha, bu yondashuv yoshlarda tadbirkorlikni rivojlantiradi, ijtimoiy loyihalar-ga mahalliy homiylarni jalb qiladi va har bir yoshni mas'uliyatli va ijodkor bo'lishga o'rgatadi.



Dastlabki bosqichda 20 nafar yosh bilan pilot loyiha boshlanadi, keyin butun tuman miqyosida kengaytiriladi. Mahalladagi kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ekologik tashabbuslar, ijtimoiy startaplar shu dastur orqali amalga oshiriladi.

Aziza Abdurahimova 2026-yilda mahalla hududida "Raqamli yoshlar markazi"ni tashkil etishni rejalashtirgan. Bu markaz yoshlar uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalar makoni bo'lib, u yerda kompyuter savodxonligi, grafik dizayn, dasturlash va robototexnika bo'yicha bepul kurslar tashkil etiladi. Loyiha xalqaro tashkilotlarning grant mablag'lari hamda mahalliy tadbirkorlar ko'magida amalga oshiriladi.

Shuningdek, 16-30 yoshli qizlar uchun "Ayollar yetakchiligi maktabi"ni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Bu loyiha qizlarga turli yo'nalishlarda amaliy bilim va ko'nikmalar beradi. Maktabni muvaffaqiyatli yakunlaganlar keyinchalik mahalla ijtimoiy loyihalarini boshqarish yoki "Qizlar akademiyasi"da murabbiy sifatida ishlash imkoniga ega bo'ladi.



Uning rejalari orasida Xalqobod yoshlari uchun xalqaro almashinuv imkoniyatlarini kengaytirish ham bor. UNICEF, KOICA, GIZ va British Council kabi tashkilotlar dasturlari orqali yoshlarning xorijiy o'quv va tajriba almashinuv dasturlarida qatnashishi rejalashtirilyapti.

Shuningdek, Aziza o'z tajribasini tuman darajasida keng yoyish niyatida. Hozir 29 ta mahallada yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashga mo'ljallangan yagona indikatorlar tizimi ishlab chiqilmoqda. 2026-yilda bu tizim "Xalqobod modeli" nomi bilan butun tuman miqyosida joriy etilishi rejalashtirilgan.

Aziza Abdurahimovaning faoliyatidan ko'rinadiki, agar yoshlar yetakchisi o'z ishiga ijodiy yondashsa, mahalladagi har bir tashabbus butun tuman, hatto viloyat miqyosida ijobiy o'zgarishlarga turtki bo'lishi mumkin.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV, "Yoshlar ovozi" muxbiri



DO'STLIK CHEGARA BILMAYDI

Timur JUMURBAYEV,

Qozog'iston xalq assambleiyasi respublika yoshlar tashkiloti rahbari

Bugungi kunda Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlatlararo munosabatlar juda faol rivojlanmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, yoshlar tashkilotlari o'rtasida ham juda yaqin va samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan. Ikki davlat yoshlari mamlakatlarimiz aholisining eng ko'p sonli toifalaridan biri, faol qatlam sifatida Qozog'iston va O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy o'sishi uchun mustahkam poydevor, zamin yaratadigan yangi loyihalar, tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Qozog'iston yoshlar hamjamiyati vakili sifatida biz O'zbekistonda yoshlar uchun yaratilayotgan tashabbuslarni, imkoniyatlarni yuqori baholaymiz. Va qardosh mamlakatning yirik yoshlar tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilmoqdamiz. Bular O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Butunjahon o'zbek yoshlari assotsiatsiyasidir. O'ylaymanki, bu jamoat diplomatiyasi va birodarlik munosabatlarimizning yanada rivojlanishi, mustahkamlanishi uchun mustahkam asosdir. Biz nafaqat jon qo'shni-miz, balki do'st va birodarimizning muvaffaqiyatlarini katta mamnuniyat, quvunch bilan kuzatib boramiz, O'zbekiston yoshlarining muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lamiz.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasidagi nutqi va dunyo yoshlari uchun tinchlik yo'lidagi harakatni

yaratish tashabbusi xalqlarimiz men-taliteti, madaniyatiga mos g'oyadir. Biz ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz va bu Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi davlatlararo hamkorlik uchun ham, Markaziy Osiyo darajasidagi keng formatli o'zaro hamkorlik uchun ham yanada katta imkoniyatlarni ochib berishini ko'rib turibmiz. O'ylaymanki, biz hamkorlikda yoshlar muhitida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga, ishonchli muloqotni mustahkamlashga qaratilgan aniq qadamlar, harakatlar bilan qo'shma loyihalarni, takliflarni ishlab chiqa olamiz.

Qozog'iston ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti darajasida tashabbuslarni ilgari surmoqda. O'ylaymanki, ikki birodar davlatning eng yirik xalqaro tashkilot darajasida tashlayotgan ushbu qadamlari natijasi o'laroq 2026-yil volontyorlarni safarbar qilish yili bo'ladi. Mamlakatimiz Prezidenti muhtaram Qosim-Jomart Toqayev ayni shu tashabbusni ilgari surmoqda.

Ushbu qadamlar mamlakatlarimiz oldinga intilayotganidan, davlatlarimiz siyosati asosida tinchlikni mustahkamlashga, ishonchli muloqot maydonini yaratishga, xalqlar o'rtasidagi madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirishga intilish yotganidan dalolat beradi. Eng muhimi, bu bizning uyg'un tariximizga, qadriyat va an'analimizga ham mos keladi. Shu jihatdan bu harakat ulkan salohiyatga ega. Qozog'iston va O'zbekiston xalqlari doimo tinchlik tarafdori bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

UNESCONING 14-YOSHLAR FORUMI SAMARQANDDA O'TKAZILADI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

TABIAT RESURS EMAS, HAYOT MANBAYI



GLOBAL MULOQOTNING YANGI FORMATI

UNESCO bu yilgi forum orqali yoshlarning ovozi global siyosat darajasiga olib chiqmoqchi. Rasmiy manbalarda ta'kidlanganidek, 140 mamlakatdan 150 nafarga yaqin yosh yetakchi Samarqandda to'planadi. Ular orasida ekologiya faollari, jurnalistlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar, iqlimshunoslik bo'yicha innovatorlar bor.

Forumda iqlim o'zgarishining yoshlar hayotiga ijtimoiy ta'siri; barqaror rivojlanish uchun ta'limning yangi modeli; yoshlar boshchiligidagi "yashil" iqtisodiyotga oid startaplarni qo'llab-quvvatlash; axborot, jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlarning ekologik ongini shakllantirishdagi o'rni kabi masalalar ko'tarilishi kutilmoqda. Bu yo'nalishlarning har biri O'zbekiston yoshlari uchun dolzarb. Bugun har bir mamlakat "yashil" imijini ko'rsatmoqda, lekin



bu imij ortida ba'zan soxta tashabbuslar, ko'zbo'yamachiliklar yashiringan. Shuning uchun bu forumda jurnalistlarning roli beqiyos bo'ladi. Jurnalist iqlim haqida yozganda faqat daraxt yoki harorat emas, inson haqida yozadi.

Samarqand shu orqali yana bir bor tarix sahifasiga kiradi. Bu safar faqatgina ilm uchun emas, kelajak uchun va unda har bir yoshning nomi yoziladi.

SayyorAI, "Yoshlar ovozi" SI muxbiri

– Men yoshlar yetakchisi sifatidagi faoliyatimni 2024-yil sentabr oyida boshlagan edim, – deydi Urgut tumanidagi O'zbekiston mahallasi yoshlar yetakchisi Diyorbek Akbarov. – Ilk kunlaridan maktab bitiruvchilarining natijalarini o'rgandim. 66 nafar bitiruvchidan atigi bir nafari oliy ta'lim muassasasiga kirgandi, u ham xususiy OTMga.

O'rganishlardan so'ng aniq xulosa qilindi: yoshlarga imkoniyatlar haqida vaqtda va to'g'ri ma'lumot berish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda ruhiy rag'batni oshirish zarur. Prezident tashabbusi va nazoratida yoshlarga berilayotgan keng imkoniyatlar, xorijiy grant va stipendiya dasturlari, ta'limdagi islohotlar haqida ma'lumotlar yoshlarga yetkazilmasa, tabiiyki, ular bu imkoniyatlardan foydalana olmaydi.

2025-yilda maktab bilan tizimli hamkorlik yo'lga qo'yildi. Maktab direktorining o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari Nilufar Obidova bilan birgalikda har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatini aniqlashga kirishildi.

– O'quvchilar bilan individual suhbat o'tkazdik. Ularning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qildik, har bir bola uchun alohida reja tuzdik. O'ta-onalar bilan ham muntazam uchrashuvlar o'tkazib, farzandlarining maqsadi va yo'nalishlari yuzasidan ochiq muloqotlar tashkil etdik, – deydi yetakchi.

O'quvchilarga oliy ta'lim tizimidagi yangiliklar, qabul tartiblari, turli grant dasturlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Qabul kampaniyasi jara-yonida ularning hujjat topshirish, testga tayyorlanish bosqichlarida yordam ko'rsatildi.

Yil davomida olib borilgan tizimli mehnat natijasi kutilganidan ham yuqori bo'ldi. 2025-yil bitiruvchilari orasida:

10 nafar o'quvchi oltin medal bilan taqdirlandi;
4 nafar o'quvchi davlat granti asosida talaba bo'ldi;
4 nafar o'quvchi kontrakt asosida OTMlarga qabul qilindi;
2 nafari xususiy OTMlarda o'qishni davom ettirmoqda.
Bu o'zgarishlar yoshlarda paydo bo'lgan ishonchning ifodasidir. En-

di ular "Biz ham qila olamiz, bizning ham kuchimiz bor", degan ishonch bilan yashashni boshladi. Maktabda o'ziga xos muhit shakllandi. Yoshlar o'rtasida fan, sport, san'at yo'nalishlarida faollik oshdi. "Zakovat" intellektual o'yinlari, turli fan olimpiadalari va to'garaklar faoliyati jonlandi. Maktab bitiruvchilari o'rtasida "Maqsadli yosh" nomli tanlov o'tkazilib, eng faol, o'z ustida ishlayotgan o'quvchilar rag'batlantirildi.

Bugungi yutuqlar faqat boshlanishi. Mahalla yoshlar yetakchisi va pedagoglar jamoasi oldida yanada yuqori maqsadlar turibdi. Endi asosiy vazifa – har bir o'quvchini maqsadli, mas'uliyatli, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda o'z o'rnini topadigan shaxs sifatida tarbiyalash.

– Maqsad bor, unga eltuvchi yo'l ham aniq. Faqat mehnat, intilish va birdamlik kerak. Chunki har bir yoshning orzusi, iqboli Vatan kelajagining mustahkam poydevoridir, – deydi Diyorbek Akbarov.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV, "Yoshlar ovozi" muxbiri

O'zbek tili uchun

TOMOSHABIN EMAS, ISHTIROKCHI BO'LING!



YOSHLAR UCHUN MING KITOB

“Yoshlar uchun ming kitob” loyihasi doirasida 85 ta kitobning tarjima huquqi olingan. Shundan 58 ta asarning tarjima-si yakunlanib, 27 ta kitob 3 ming nusxadan jami 81 ming nusxada chop etildi. Kitoblarni 205 ta kutubxona, 50 ta davlat tashkiloti, 97 ta oliy ta'lim muassasasi va 31 ta ilmiy-tadqiqot institutiga yetkazish ishlari boshlangan.

Loyihani amalga oshirishda 180 kishidan iborat jamoa: 50 nafar tarjimon, 18 nafar musahhih, 42 nafar muharrir, 45 nafar ekspert, 15 nafar dizayner va loyihaning 20 nafar jamoasi ishtirok etmoqda.

Loyihaning yangi bosqichi xorijda yashayotgan o'zbek olimlarining ilmiy asarlarini ham tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Bu ilm-fan yutuqlarini keng targ'ib etish, o'zbek tilini xalqaro ilmiy muhitda faol foydalaniladigan tilga aylantirish yo'lidagi muhim qadam sifatida qaralaypti.

Tarjima huquqi olingan
85 ta kitob
Tarjima qilingan
58 ta kitob
Chop etilgan
27 ta kitob (81 ming nusxa)



“IBRAT FARZANDLARI”- DAN YANGILIK

“O'zbek tili” dasturi “Ibrat farzandlari” loyihasining o'zbek tilini zamonaviy texnologiyalar orqali o'rgatishga qaratilgan yirik tashabbusi bo'ldi. CEFR standartlariga mos tuzilgan kurs tinglab tushunish, o'qish, yozish va so'zlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Dastur 30 bo'lim va 180 darsdan iborat bo'lib, har bir bosqichda 700 dan ortiq yangi so'z hamda 1400 mashqni o'z ichiga oladi. Dastur o'zbek tilini o'rgatish bilan birga yurtmiz madaniyatini targ'ib qilishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda “Ibrat farzandlari” loyihasida ilova foydalanuvchilari soni 2 million 827 mingdan oshgan. YouTube'dagi sahifasida 911 mingdan ziyod obunachi bor, videodarslar esa 70 million martadan ortiq tomosha qilingan. Platforma 22 ta xorijiy til bo'yicha darslarni o'zbek tili orqali o'rgatadi.

Foydalanuvchilar
2 mil 827 ming+
Sertifikat olgan
309 ming+
O'rgatiladi
22 ta til



WIKIMARAFON

“WikiMarafon” – o'zbek tili-dagi raqamli kontentni kengaytirish yo'lidagi eng katta va faol harakatlardan biri. Hozir 100 nafar a'zodan iborat jamoa har oyda 1000 ta yangi maqola yaratmoqda, yil davomida esa 500 mingdan ortiq tahrir amalga oshiriladi. O'zbekcha Vikipediya'da ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari soni 206 ming nafarga yetgan, ulardan 800 nafari doimiy faol tahrirchi sifatida ishtirok etmoqda. Platformaga har oylik murojaatlar 24 milliondan oshadi.

Bugungi kunda o'zbekcha Vikipediya'da 309 mingta maqola, 1,1 milliondan ortiq sahifa mavjud bo'lib, umumiy tahrirlar soni 5,7 millionga yetgan, yil yakuniga qadar bu ko'rsatkich 6 millionga chiqishi kutilmoqda. Maqolalardagi so'zlar soni 63 million, “teranlik” darajasi esa 36 ni tashkil etadi.

Loyiha natijasida o'zbekcha Vikipediya ma'lumotlar soni bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rin, turkiy tillar orasida 3-o'rin, dunyo bo'yicha esa 40-o'rin egallab turibdi. Maqsad – 2026-yil oxirigacha yana 200 ming maqola qo'shish va jahon reytingida kuchli 30 talikka kirish.

Markaziy Osiyoda
1-o'rin
Turkiy tillar orasida
3-o'rin
Jahonda
40-o'rin

MUTOLAA

2024-yil aprelda atigi 15 kishilik jamoa va 10 mingta kitob bilan yo'lga qo'yilgan “Mutolaa” loyihasi bugunga kelib millionlab kitobxonlarni birlashtirgan raqamli madaniyat markaziga aylandi. Hozir jamoada 150 nafar mutaxassis ishlamoqda, foydalanuvchilari soni esa 3 millionga yetdi. Platformada 220 ming sifatli elektron asarlar mavjud, kitoblar o'qilishi 10 milliondan oshdi.

6 ming soatdan ortiq audio bazasi bilan “Mutolaa” audio-kitoblarni ham keskin oshirdi, foydalanuvchilari esa 7,3 million soatdan ko'p audio eshitgan. Nashriyotlar bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan “Mutolaa market” loyihasi orqali elektron kitob savdosi yo'lga qo'yildi.

Yana bir yangilik – sun'iy idrok algoritmlarining qo'shilgani. Endi foydalanuvchi kitob haqida savol berishi, suhbatlashishi mumkin. “Mutolaa” bugun raqamli avlod uchun kitob o'qishni zamonaviy shaklda qayta tiklayotgan eng samarali platformalardan biriga aylanmoqda.

Elektron kitoblar
220 ming+
O'qilishlar
10 mln+
Audiokitoblar
6 ming soat

Shuningdek, tadbirda “Ustoz AI”, “Bek va Lola”, “Uzchess”, “Qizlar akademiyasi” va “Milliy karaoke” loyihalarining taqdimotlari ham o'tkazildi. Har bir loyiha o'z yo'nalishi orqali o'zbek tilini ilm, ijod, ta'lim va madaniyat sohalarida yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi izchil sa'y-harakatlarini namoyish etdi.

IBRAT SOVG'ASI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



– O'zini shu yurtning chin farzandi deb hisoblagan har bir inson vatani ravnaqi, uning tili rivoji uchun qanday ishlarni amalga oshirdim, degan savolni o'ziga berishi tabiiy. “Ibrat farzandlari” loyihasi ham o'z faoliyatini boshlar ekan, eng katta maqsadimiz o'zbek tilidagi milliy kontentlarni ko'paytirish bo'lgan. Shu sababdan loyiha doirasida o'zbek tilidan savodxonlik darslari, o'zbek tili orqali ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, koreys, turk, xitoy, yapon tili kabi jami 22 ta xorijiy tilni o'rgatuvchi video darsliklar, ingliz, rus hamda ozarbayjon tillari orqali bepul o'zbek tili darsliklarini qamrab olgan ikki yarim mingdan ortiq kontentlar tayyorladik. O'zbek tilidagi darsliklarni “Ibrat Academy” mobil ilovasida 650 ming nafar foydalanuvchi o'rganib kelmoqda. Shu yilning oktabr oyida “Ibrat farzandlari” jamoasi o'zbek tili bayramiga o'zbekona tuhfini taqdim qildik. Bu – O'zbekistonda ilk bor sun'iy idrok yordamida yaratilgan O'ZBEK TILI dasturi, – deydi “Ibrat farzandlari” loyihasi asoschisi Rustam Qoriyev.

“YOSHI, MILLATI, FUQAROLIGIDAN QAT'I NAZAR O'ZBEK TILINI O'RGANISH ISTAGIDAGI HAR QANDAY INSON FOYDALANISHI MUMKIN.

balar, chet davlatlarda istiqomat qiluvchi vatandoshlarimiz va ularning farzandlari, xorijiy mamlakatlar hamda yurtimizdagi o'zbek tili kurslari o'quvchilari, umuman, yoshi, millati, fuqaroligidan qat'i nazar o'zbek tilini o'rganish istagidagi har qanday inson foydalanishi mumkin.

“Ibrat farzandlari” loyihasining “O'zbek tili” dasturi ona tilimizni o'rgatish bilan cheklanmasdan, o'zbekona ruhni his etish, xalqimizning boy madaniy merosi bilan tanishish imkoniyatini yaratishi aniq.

Mahfuza ORTIQOVA



KITOBXON OILA

TOSHKENT VILOYATI
BOSQICHI YAKUNLANDI

“Yosh kitobxon oila” tanlovi yurtimizda yosh oilalarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni farzandlariga ibrat bo'ladigan, kitobxon va bilimli ota-onalar sifatida tarbiyalashda katta samara bermoqda.

Joriy mavsumda Toshkent viloyatida tanlovda ishtirok etish uchun to'qqiz mingdan ortiq yosh oila ro'yxatdan o'tgan. Test sinovlari natijalariga ko'ra, eng yuqori ball to'plaganlar orasidan viloyat g'oliblari aniqlandi:

1-o'rin
Eshonqulovlar oilasi
(Chirchik shahri);
2-o'rin
Yunusovlar oilasi
(Olmaliq shahri);
3-o'rin
Nosirxonovlar oilasi
(Bekobod tumani).

G'olib oila respublika bosqichida Toshkent viloyati sharafiga nomzod bo'ldi.

O'ZBEKISTON HUQUQIY TIZIMIDAGI KAMCHILIK

Inson tanasining daxlsizligi va uning ustidan egalik qilish huquqi zamonaviy huquqshunoslik va bioetikaning asosiy tamoyillari-dan. Bu huquq jamiyatda har bir shaxsning o'z tanasiga nisbatan irodasini hurmat qilishga asoslanadi. Biroq voyaga yetmagan shaxslarning somatik huquqlari, ya'ni ularning tanasi ustidan qaror qabul qilish, tibbiy aralashuvlarga rozilik berish yoki rad etish huquqlari murakkab va ko'p qirrali masaladir. Voyaga yetmaganlar to'liq huquqiy layoqatga ega bo'lmagan subyektlar sifatida baholalanadi. Ularning tibbiy qarorlar qabul qilishdagi huquqiy maqomi ota-onaning yoki qonuniy vakilining roziligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda bolaning yoshi, aqliy yetukligi va individual roziligi tibbiy muolajalarda e'tiborga olinishi kerakligi urgulanadi.

O'zbekiston huquqiy tizimida voyaga yetmaganlarning somatik huquqlari masalasiga hali to'liq va tizimli yondashilmagan. Amaliyotda ota-onaning tibbiy roziligi yetarli hisoblanadi, biroq bu holatda bolaning shaxsiy huquqlari qanday darajada himoya qilinayotgani savol ostida qolmoqda.

Bu huquqlar inson tanasining daxlsizligi, tibbiy aralashuvlarga rozilik yoki rad etish, organ donatsiyasi, jinsni o'zgartirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ushbu huquqlarning tatbiqi esa murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning yoshga doir huquqiy layoqati, aqliy va psixologik yetukligi bilan bevosita bog'liq.

Voyaga yetmagan shaxsning somatik huquqlarini amalga oshirishda ota-onaning yoki qonuniy vakilining roziligi talab etiladi. Biroq bu yondashuv doim ham adolati va samarali emas. Bolaning o'z tanasi ustidan qaror qabul qilish imkoniyati, uning ruhiy va aqliy rivojlanishiga qarab baholanishi kerak.

Bioetikada esa bolaning “avtonomiyasi” alohida qadriyat sifatida qoraladi. Har bir inson, jumladan, voyaga yetmaganlar ham o'z tanasi va sog'lig'i ustidan fikr bildirish va qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, sog'lig'iga oid nozik qarorlarda (masalan, operatsiyaga rozi bo'lish, psixiatriya muolajasi, kontratsepsiya) bolaning fikrini inobatga olish axloqiy va huquqiy mas'uliyat hisoblanadi.

Demak, somatik huquqlar va voyaga yetmaganlar o'rtasidagi munosabatda faqat huquqiy emas, balki axloqiy (etik) yondashuv ham muhim. Bolaning shaxsiy erkinligi, daxlsizligi va ijtimoiy himoyasi bir vaqtda muvozanatda bo'lishi kerak. Bu esa O'zbekiston huquqiy tizimi uchun yangi, ammo zarur yondashuvlarni talab qiladi.

Voyaga yetmaganlarning tibbiy rozilik berish huquqi xalqaro huquq va bioetika doirasida tobora muhim ahamiyat kasb etyapti. Inson huquqlari va bolalarning manfaatlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar, xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risida konvensiyasi (UNCRC, 1989), har bir bolaga yoshi va yetuklik darajasiga qarab o'z sog'lig'i, xavfsizligi va daxlsizligiga oid masalalarda fikr bildirish va qaror qabul qilishda ishtirok etish huquqini kafolatlaydi.

Buyuk Britaniya amaliyoti-da “Gillick competence” tamoyili asosida voyaga yetmaganlar muayyan tibbiy qarorlar, masalan, kontratsepsiya, psixologik davolanish yoki oddiy jarrohlik muolajalari bo'yicha ota-onasiz ham mustaqil rozilik bera oladi. Sud qarorida asosiy

Sevinchoy
SAIDKOMILOVA,
Urganch davlat
universiteti talabasi



VOYAGA YETMAGANLARNING SOMATIK HUQUQLARI

“O'zbekiston Respublikasining Huquqiy Tizimida Voyaga Yetmagan Shaxslarning Tanasi Ustidan Egalik Huquqi Alohida Huquqiy Institut Sifatida Ajratilmagan.

mezon sifatida bolaning aqliy yetukligi, xavf-xatarni tushunish qobiliyati va muolajaning oqibatlarini idrok etish salohiyati e'tiborga olingan. Fransiya'da sog'liqni saqlash kodeksi-ga muvofiq 15 yoshdan oshgan voyaga yetmaganlar ba'zi tibbiy xizmatlarga ota-onasiz murojaat qilish huquqiga ega. Germaniyada esa tibbiy rozilik berish yosh chegarasi qat'iy belgilanmagan, lekin “Verständnis-fähigkeit” (tushunish qobiliyati) asosida shifokor har bir holatda bolaning layoqatini baholaydi.

AQShda bu masala shtatlarga qarab farq qiladi. Ko'plab shtatlarda voyaga yetmaganlar jinsiy salomatlik, ruhiy salomatlik va giyohvandlikdan davolanish xizmatlarida ota-onasiz rozilik bera oladi. Bu yondashuv “minor consent laws” deb yuritiladi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ham tibbiy xizmatlar ko'rsatishda voyaga yetmaganlarning avtonom qarorini hurmat qilish, ularning roziligi va ishtirokini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar bergan. Ayniqsa, 12-18 yoshdagi bolalar uchun psixologik va emlash kabi muolajalarda ularning fikri birlamchi omil sifatida qoraladi.

Shunday qilib, xalqaro tajribada voyaga yetmaganlarning somatik huquqlari yoshi, aqliy va hissiy yetukligiga qarab belgilanadi. Bu yondashuv shaxsiy daxlsizlikni, sog'lom qaror qabul qilish huquqini va huquqiy subyektlarni rivojlantirishga xizmat

“GILICK COMPETENCE” MODELINI JORIY QILISH VOYAGA YETMAGANLARNING SOMATIK HUQUQLARINI MUSTAHKAMLASH YO'LIDA MUHIM QADAM BO'LADI.

qiladi. O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida voyaga yetmagan shaxslarning tanasi ustidan egalik huquqi alohida huquqiy institut sifatida ajratilmagan. Amalda Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Sog'liqni saqlash vazirligi me'yoriy hujjatlari, Bola huquqlari to'g'risidagi qonun orqali tartibga solinadi.

Oila kodeksining 67-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan bolalar tibbiy muolajalar uchun ota-onasi yoki qonuniy vakilining roziligi asosida qaror qabul qiladi. Biroq 14 yoshga to'lgan bolalarga ayrim hollarda tibbiy xizmatlar ko'rsatishda o'z roziligi talab qilinishi mumkin, bu holatlar tibbiyot muassasalarining ichki yo'riqnomalarida qisqsa va umumiy tarzda ko'rsatilgan. Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga binoan 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar to'liq huquqiy layoqatga ega emas. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar esa cheklangan hajmda muomala layoqatiga ega bo'lib, ular qonunchilikda ko'rsatilgan hollarda mustaqil ravishda muomala qila oladi. Biroq tibbiy aralashuv masalalari bu doiraga kirmaydi.



“Bola huquqlari to'g'risida”-gi qonunda esa bola sog'lig'iga doir masalalarda axborot olish huquqiga ega deb belgilangan (12-modd), ammo ularning somatik huquqlari, ya'ni tibbiy rozilik, tana daxlsizligi va avtonom qaror qilish huquqi aniq ko'rsatilmagan. Shuningdek, O'zbekiston Bola huquqlari to'g'risida konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lsa-da, bu hujjatdagi qoidalar milliy qonunchilikda to'liq inobatga olinmagan. Amaliyotda ota-onaning roziligi yetarli deb hisoblanadi, hatto bolaning shaxsiy qarshiligi yoki noroziligi inobatga olinmaydi. Bunday vaziyatda voyaga yetmaganlarning somatik huquqlari amalda cheklangan. Ayniqsa, ruhiy salomatlik, majburiy davolanish, kontratsepsiya yoki reabilitatsiya kabi nozik tibbiy xizmatlarda bolaning fikri va roziligi hisobga olinmayapti. Bu holat bolaning daxlsizligi, avtonomiyasi va psixologik xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

O'zbekistonda soha bo'yicha alohida qonunchilik hujjati ishlab chiqish, “Gillick competence” modelini joriy qilish, mutaxassislar uchun bioetika bo'yicha treninglar o'tkazish voyaga yetmaganlarning somatik huquqlarini mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ladi. Shu orqali sohaga faqat tibbiy yoki huquqiy emas, insoniylik va axloqiy mas'uliyat mezonlari joriy etiladi.

“URFDAN QOLGAN” TILI

Bugun jamiyatimizda zamonaviylik degan tushuncha bilan ona tili bir-biriga tobora zidlashib boryapti. Yoshlar orasida inglizcha yoki ruscha aralash soʻzlashish odatiy holga aylangan. Goʻyo “Hi, bro”, “Ok, let’s go”, deb gapirgan kishiga zamonaviy, ilgʻor va global fikrlaydigan inson sifatida qaraladi. Hatto bunday gapiradiganlarga havas bilan qaraydigan yoshlar ham talaygina. Ammo bu “zamonaviylik” oʻzbek tilining qadrini tobora pasaytirib borayotir.

Bu masala haqida qancha koʻp gapirilgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan shunchalik jiddiylashmoqda. Endi sof oʻzbekcha soʻzlashga oddiy va joʻn deb qaralib, omixta tilda muloqot qilish orqali oʻz uslubini koʻrsatish hamda atrofda qilarning eʼtiborini tortish urfga kirib boʻldi. Bunday gaplashish orqali faqat oʻzbek tili emas, shu qorishidagi boshqa tillar ham masxara qilinayotgandek.

Soʻzlashuvdagi xatoliklar ku, mayli, lekin taʼlim va boshqa sohalaridagi chetdan kirib kelgan ayrim soʻzlarning muqobili haligacha yoʻq, boʻlsa-da ishlatilmaydi. Shu oʻrinda Atamalar komissiyasi va Davlat tilini rivojlantirish departamentini ham bir eslab ketish kerak. Misol uchun, biz shu paytgacha ustoz, oʻqituvchi deb biladigan tushunchalarimiz oʻrniga “mentor” degan atama kirib keldi. Endi koʻpchilik yosh oʻqituvchilar yoki biror loyiha yetakchilari oʻzini “mentor” deb tanishtiryapti. Talabalar orasida koʻp ishlatiladigan kredit tushunchasi hamma biladigan bankdan olinadigan qarz emas. Universi-

tetlarda “Hemis” tizimi yoʻlga qoʻyilganidan beri fanlarning ogʻirlik darajasini ifodalovchi birlik sifatida “kredit” soʻzi ishlatiladi. Bu tizim ham, soʻz ham toʻgʻridan toʻgʻri oʻzlashtirilgan va oʻzbekcha muqobiliga ega emas. Bundan tashqari, ishga kirish uchun nomzod taqdim etadigan tarjimaiy hol endi “rezyume” yoki CV deb ataladi. Oʻzbekcha muqobili boʻla turib, shu kungacha oʻzbekcha soʻzdan foydalanib, keyin shuncha-ki “zamonaviylashish” maqsadida boshqa tildagi muqobilini ishlatish kulgili emasmi? Balki, achinarlidir...

Yoshlar orasida oʻzbek tilidan uzoqlashishning yana bir sababi – taʼlim va kasbiy muvaffaqiyatning oʻzbek tili bilan bogʻlanmagani. Bugungi kunda AT, biznes, tibbiyot, xalqaro iqtisod kabi yoʻnalishlarda ingliz tili soha va bilim tili sifatida tan olinadi. Universitetlarda, kurslarda, hatto kundalik muloqotda ham ruscha yoki inglizcha soʻzlasha olish yuqori saviya belgisi sifatida baholanadi. Chunki zamonaviy kasblarni oʻrganish va egallash uchun ushbu chet tillarini oʻzlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo oʻzbek tilida ilmiy yoki kasbiy atamalar kamligi, ilmiy adabiyotlar yetishmasligi muammo-ning ildizi boʻlib qolmoqda. Natijada yoshlar oʻz ona tilida emas, aralash tilda fikrlay boshlaydi, toza oʻzbekcha gapiraman desa tutiladi. Masalaning eng katta fojiasi ham mana shu.

Tilga nisbatan befarqlik oilada ham oʻz aksini topyapti. Ayrim ota-onalar farzandining ilk soʻzlari chet tilida chiqishini istaydi, bu ayrim deganimiz esa kam emas. Bolalari bilan faqat chet tilida muloqot qiladi, vaholanki, til va millat qadriyatlarini aynan oila davrasida yashaydi. Toʻgʻri, bolalikdan boshqa tillarni oʻrganish yoshlar kelajagi uchun juda foydali. Katta muvaffaqiyat eshiklarini ochish uchun ham til bilmoq talabi muqarrar. Ammo biz nazarda tutayotgan oʻz ona tilini bilmay, chala-chulpa soʻzlash va shu orqali “zamonaviylik”ka intilish savodsizlikdir. Nadomatki, millati tilini – oʻzligini bilmaydigan yoki bu tilda gapirishga uyaladigan bir toʻp avlod yetishib chiqayotganiga ham guvoh boʻlyapmiz.

Zamonaviylik yoki yuqori saviya chet tilini bilish emas, oʻz tilini bilgan holda dunyoga chiqish va ona tilini ham tanitishdir. Har bir rivojlangan xalq, jumladan, ingliz, yapon, koreys, turk yoki nemislar globalizm- da ishtirok etar ekan, avvalo oʻz tilini saqlab qolgan va rivojlan-tirmoqda. Biz esa...

Sarvinov YALGASHOVA



U YASHASHI KERAK

Til bor joyda ruh, tarix, gʻurur va kelajak bor... 1980-yillar oxiri jamiyatda milliy uygʻonish ruhi kuchayib, 1989-yil 21-oktabrda davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Bu millatning oʻz tarixini anglash, qadrini bilish yoʻlidagi ilk gʻalaba boʻldi.

Til – millat tafakkuri va his-tuygʻulari ifodasi. Har bir soʻzda ajdodlar merosi, har bir iborada xalq hayotining tajribasi bor. Zamonaviy dunyoda esa oʻzbek tilini ilm, texnika va raqamli sohalarida rivojlantirish va uni zamon bilan hamnafas qilish zarur. Bugun oʻzbek tili ham raqamli makonga kirib boryapti. Ilmiy portallar, axborot saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda oʻzbekcha kontent koʻpaymoqda.

Oʻzbek jamiyatida ham globallashuv sharoitida chet tillarga talab ortyapti, ammo bu jarayonda oʻzbek tilining nufuzini saqlab qolish muhim. Chunki til milliy idrok va maʼnaviy kodni saqlovchi tizimdir. Keyingi yillarda koʻplab idoraviy hujjatlar davlat tiliga oʻtkazildi, 100 mingdan ortiq geografik obyektning nomi davlat reyestriga kiritildi, hududlardagi 150 mingdan ziyod tashqi yozuvlar davlat tili va reklama toʻgʻrisidagi qonun hujjatlar talablariga muvofiq lashtirildi.

Oʻtgan yili meʼyoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan oʻtkazish tizimi yaratildi. Rahbarlik lavozimlariga nomzodlarning oʻzbek tili boʻyicha bilim darajasini aniqlash maqsadida milliy test tizimi joriy etilib, 3 mingdan ziyod talabgorning qariyb 1 ming 500 nafariga davlat tilini bilish boʻyicha sertifikatlar berildi.


Davlat tili asoslarini chuqur va atroflicha oʻrganishni taʼminlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbek tilini rivojlantirish jamgʻarmasi tomonidan 58 nomdagi qomus, lugʻat va qoʻllanmalar koʻp nusxalar- da chop etildi. Oʻzbekcha matnlarni sunʼiy intellekt yor- damida qayta ishlash va oʻzbek tilida muloqot qilishga moʻljallangan “aqli” dastur ishlab chiqish ishlari boryapti, oʻzbek tili izohli lugʻatining veb sayti yaratildi.

Ammo bular hali yetarli emas. Tilni rivojlantirish faqat qonun va hujjatlar bilan boʻlmaydi, balki uning kundalik hayot, ilm, texnologiya va madaniyatdagi oʻrnini mustahkamlash talab etiladi. Oʻzbek tili raqam- li maydonda kirib borayotgan boʻlsa-da, global axborot makonida hali keraklixa faol emas. Demak, tilni asrash emas, uni zamon bilan birga yashatish bugungi eng kat- ta vazifadir.

Sabina ZOKIROVA, JIDU talabasi

SOʻNA OʻZIMIZNING QOLMASMI?

Ziyoda TURDIBOYEVA



Badiiy adabiyotda sarlavha asar kompozit-siyasining bir boʻlagi boʻlib, turli xil maqsadlarda foydalaniladi: baʼzan butun asar mohiyatini oʻzida mujassamlashtirsa, baʼzan yashirin maʼno yuklanadi.

Soʻna – ikki qanotli parazit (bu soʻz birovga qaramlik, boshqalar hisobidan kun koʻrish kabi maʼnolarni anglatadi) hasharot. Biologiya fanidan bilimlarimga tayanib aytishim mumkinki, bu turdagi hasharotlar, garchi botqoqlikda tugʻilib, goʻngni xush koʻrsa-da, lekin tozalikka rioya qiladi.

“HOZIR YASHAYOTGAN BAXTLI KUNLARIMIZ UCHUN TOʻKILGAN QONLAR HAQQINI ADO ETA OLDIKMI?”

Renni javobsiz muhabbatiga... Asardagi yagona ozod shaxs, shubhasiz, Artur edi. Albatta, bir muncha vaqt nafrat tuygʻusi asir olganiga qaramay, Artur uning panjaralarini aralay oldi. Garchi asar bosh qahramonning halokati bilan yakunlangan boʻlsa-da, u oʻz yaqinlarini ozodlikka chiqarishga erishdi: Montanelli oʻzi sigʻinib kelayotgan afsus-nadomatdan voz kechgan holida ruhi erkinlikka chiqdi, Jemma pushaymonlik tumanidan xalos boʻldi, Renni oʻzini oʻzi bogʻlab tashlagan his-tuygʻular tugunini parchalashga jurʼat topdi.

Asar mohiyatini ochib berishda yana bir muhim jihat shuki, Arturning ozodlik yoʻlida toʻkilgan qoni Iso paygʻambar qoni bilan qiyoslanadi: “Injil- da Lonn avliyo “Parvardigori olam oʻz bandalarini shunday sevadiki, bandayi moʻminlarim halok boʻlmasin, abadiy hayot kechirsin deb, oʻz pushti kamari- dan boʻlmish oʻgʻlini qurbon qildi”, degan.

...oʻzinning oʻgʻlimga, uning koʻzlariga tikildim, koʻzlaridan gunohini qon bilan yuvganini koʻrdim-u, uni oʻz taqdiriga havola qilib, yoʻlimga ketaverdim.

Ana, gunohni oʻtishning qandayligiga qarang. U sizlarni deb oʻldi, uni zimiston bagʻriga oldi; u oʻldi, endi hech vaqt tirilmaydi; oʻldi, men oʻgʻilsiz qoldim... Sizlarning ruh- laringizni qutqarish uchun shuncha haq toʻlandi; arziydimi shu haqqa u iflos ruhlaringiz? Qaranglar, taxt zinasidan bugʻlanib turgan qaynoq qon oqayapti. U qon oʻgʻlimning qalbidan oqib chiqyapti, u sizlar



Soʻna tabiatda qon soʻrish, kasallik tarqatish bilan bir qatorda gul nektarlari bilan ham oziqlanadi. Bizning “Soʻna”miz, yaʼni Etel Lilian Voynichning shu nomdagi roman bosh qahramoni Artur nima uchun oʻziga bu laqabni ravo koʻrdi ekan?

Maʼlumki, soʻnalar asosan uy hayvonlariga – qoramollarga hujum qiladi. Tinch holatda turgan hayvon soʻna chaqqandan soʻng harakatga keladi. Asar qahramoni ham tinch holatdagi ommani harakatga keltirish maqsadida jamiyatdagi koʻzga koʻringan “qoramollar”ga hujum qilib turadi. Jamiyatni harakatlantirishdan maqsad nima edi? Maqsad – odamzotni yangi hayot, yangi kelajak va yangi dinga daʼvat etish. Arturning nazdida bu yangi din ozodlik, erk, hurlik dini edi va nuraifshon hayot kafolati boʻla olardi.

Tan olish kerakki, tabiatan har bir inson kimgadir yoki nimagadir qaram, qul boʻlib yashaydi: kimdir his-tuygʻulariga, kimdir nafsiga, yana kimdir boshqalarning fikriga va hokazo. Asar qahramonlari ham bundan mustasno emas. Masalan, Montanelli (Arturning haqiqiy otasi) oʻz afsus-nadomatlariga qaram, Jemma oʻtmishida yuz bergan xatosi uchun pushaymonlikka qaram,



uchun toʻkilgan! Balchiqqa yotib olib yalang endi uni, basharalaringizga surting endi uni! Taniga yopishing, talang, yengʻ.

Endi oʻzimizga savol beraylik: bizchi, hozir yashayotgan baxtli kunlarimiz uchun toʻkilgan qonlar haqqini ado eta oldikmi yoki buni suiisteʼmol qilyapmizmi?! Erkarparvar insonlar toʻkkan qonni soʻrib yashayotgan soʻna oʻzimiz emasmi?! Ingliz adibasi Voynichning ayni romani yuqoridagi savollarga javob topishingizga koʻmaklashadi.

Asarning ahamiyatli jihati shundaki, olmos toshdan matematik olim murakkab burchaklarni, kimyogar ugleroddan tashkil topganini, zargar esa ajoyib zargarlik buyumi yasay olishini koʻrsatib berolgandek, bu roman- ga ham sotsiologik, teologik, falsafiy, siyosiy nuqtayi nazarlar boʻyicha yondashish mumkin. Men boʻlsam, oʻz nuqtayi nazarim bilan yondashdim. Siz ham uni oʻqib koʻrgach, oʻz nazari- yangizni toparsiz...

BMTning 80 yilligi

OʻZBEKISTON BMT NIZOMI TAMOYILLARIGA SODIQ

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Sovuq urush davri BMT faoliyatini chekladi, koʻplab mojarolar hal etilmay qoldi, min- taqaviy nizolar avj ol- di. Xavfsizlik Kenga- shining doimiy aʼzolari oʻrtasida- gi kelishmovchiliklar koʻpincha tez va samarali qarorlar qabul qilishga toʻsqinlik qildi. Biroq shunga qara- may, BMT oʻz vazifalarini bajarishda davom etdi. Tashkilot doimiy ravish- da oʻzgarib borayotgan dunyo sha- roitlariga moslashdi, yangi global muammolar: iqlim oʻzgarishi, terro- rizm, pandemiyalar, kiberxavfsizlik masalarini kun tartibiga olib kirdi.

XXI asr BMT oldiga yangi va mu- rakkab vazifalarni qoʻydi. Bugungi kunda dunyo bir vaqtning oʻzida bir nechta global inqirozlarga duch kel- moqda. Iqlim oʻzgarishi sayyoramiz kelajagi uchun jiddiy xavf tugʻdir- yapti. 2015-yilda qabul qilingan Parij kelishuvi va Barqaror Rivojlanish maqsadlari BMTning bu boradagi yetakchi oʻrnini koʻrsatdi. Shu bilan birga, mintaqaviy mojarolar, terro-

rizm, iqtisodiy tengsizliklar, migrat- siya inqirozi xalqaro hamjamiyatni hamon tashvishga soladi. Aynan shu murakkab sharoitda BMTning bir- lashtiruvchi kuchi va global masla- hatlar platformasi sifatidagi ahami- yati yanada muhim sanaladi.

Oʻzbekiston mustaqillikka erish- ganidan beri BMT bilan hamkorlikni oʻz tashqi siyosatining ustuvor yoʻna- lishlaridan biri deb belgiladi. 1992-yil 2-martda BMTga aʼzo boʻlgan mam- lakatimiz shu kundan boshlab xalqa- ro hamjamiyatning faol ishtirokchisi- ga aylandi. Oʻzbekiston nafaqat BMT Nizomining tamoyillariga sodiq qol- di, balki oʻz mintaqasi Markaziy Osi- yoning tinchligi va barqaror rivojla- nishiga muhim hissa qoʻshdi. Soʻng- gi yillarda mamlakatimiz xalqa- ro miqyosda oʻz mavqeyini yanada mustahkamladi va bir qator dolzarb tashabbuslarning muallifiga aylandi.

2025-yil 23-sentabr kuni Nyu York- dagi BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbuslar xalqaro ham-

jamiyat tomonidan yuqori baholan- di. Mamlakatimiz gahbari nutqida bu- gungi dunyodagi global jarayonlarda- gi keskinlikning ortayotganini taʼkid- lab, BMTning xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi oʻrnini yanada kuchaytirish zarurligini qayd etdi. BMT bugun yangi davrga qadam qoʻyyapti: global muammolar yanada murakkablashib, dunyo tartibotida oʻzgarishlar yuz bermoqda. Tashkilot



XXI asrning barcha qiyinchiliklariga javob bera olishi, samarali va adolatli xalqaro tizimni yaratishda yetakchilik qilishi lozim. 80 yillik tajriba koʻrsat- diki, agar dunyo mamlakatlari ha- qiqatdan ham tinchlik, barqaror rivoj- lanish va adolatli jamiyat sari intil- salar, BMT buni amalga oshirishning eng samarali vositasidir.

Asilbek MOʻMINOV TDYU oʻqituvchisi

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
Oʻzbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir oʻrinbosari:
Shahobiddin LUQMON

Masʼul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta roʻyxatdan oʻtgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh koʻchasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turan koʻchasi, 41. Indeks- lar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1008, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

